



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 1 (03)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**1**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

MUNDARIJA

<b>Tursunov A.M.</b> O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
<b>Abdulazizov A.A.</b> Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
<b>Jurayev D.A.</b> Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taъsir etuvchi omillar.....	15
<b>Suyarov Sh.S.</b> Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
<b>Кариева Л.С.</b> Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
<b>Axtamov A.U.</b> Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’siri xususida.....	25
<b>Гафуров А.Б.</b> Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
<b>Абиткариев А.М.</b> Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
<b>Abdullayev D.G’.</b> Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
<b>Abdullayev M.G’.</b> Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
<b>Isakov A.Y.</b> Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
<b>Ashurova G.N.</b> Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
<b>Yo‘ldosheva M.F.</b> O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
<b>Қулматов А.А.</b> Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
<b>Babayev A.N.</b> Yoshlar bandligini ta’minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
<b>Sharipov H.A.</b> Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
<b>Турдиева Я.</b> Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
<b>Vaxidov A.K.</b> Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
<b>Gaymatova D.G’.</b> Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
<b>Pardayev E.E.</b> Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
<b>Ibragimova S.A., Muradov Sh.D.</b> Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
<b>Адилов Б.Б.</b> Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
<b>Yoqubova Z.T.</b> Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning konseptual asoslari.....	101
<b>Saidaxmedova N.I., Aripov A.S.</b> Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
<b>Abduvovyeva X.Sh.</b> O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga ta’sirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
<b>Умаров А.А.</b> Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибadorligini oshirish.....	116
<b>Shoraximova Z.N.</b> «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	120
<b>Умурзакова З.С.</b> Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш yo‘llari.....	126
<b>Karimov X.O.</b> Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

<b>Aхунов М.А.</b> Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
<b>Ахмаджонов С.С.</b> Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
<b>Abdullayeva Sh.А.</b> Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralarini boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
<b>Дусанов С.М.</b> Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
<b>Мамаражобов А.С.</b> Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
<b>Nigmatova D.Z., Amanov E.G’.</b> Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalarida samaradorligiga ta’siri.....	157
<b>Ikromjonova M.U.</b> To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
<b>Madaminjonov A.O.</b> To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
<b>Jamoliddinova S.S.</b> Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
<b>Akbaraliyev A.E.</b> O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
<b>Эрматова С.И.</b> Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
<b>Maxsudov Sh.S.</b> To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
<b>Boyev X.I., Adilov B.B.</b> Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
<b>Raxmonova N.A.</b> Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
<b>Якубова Д.М.</b> Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
<b>Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y.</b> Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
<b>Matyoqubova D.O.</b> Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
<b>Rahmatullayeva F.</b> Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
<b>Mamajonov L.A.</b> Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
<b>Давруков Ф.У.</b> Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
<b>Убайдуллаева Н.Р.</b> Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
<b>Abdullayev A.A.</b> Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
<b>Alimov O.N.</b> O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
<b>Sultonov B.M.</b> Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
<b>Mamajonova N.A.</b> Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
<b>Sanaqulova A.</b> O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
<b>Nazarov N.N.</b> Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
<b>Toshpulatov A.M.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
<b>Sanaqulova A., Ochilova M.</b> Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
<b>Umarov I.Y.</b> Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

**MAHALLIY BYUDJETLAR BARQARORLIGI — IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMINI  
MUSTAHKAMLASH OMILI SIFATIDA**

**УСТОЙЧИВОСТЬ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ КАК ФАКТОР УКРЕПЛЕНИЯ  
СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ**

**SUSTAINABILITY OF LOCAL BUDGETS AS A FACTOR FOR STRENGTHENING THE  
SOCIAL PROTECTION SYSTEM**

**Boyev X.I.**, TDIU prof. i.f.d  
**Adilov B.B.**, O‘zMU dots. i.f.n.

**Annotatsiya**

Maqolada mahallalarda aholini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali kambag‘allikni kamaytirish hamda aholini farovonligini oshirishda turli moliyaviy homiylik qiluvchi manbalarni ko‘paytirib borish haqida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** mahallani moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy homiylik ko‘rsatuvchilar, moliyaviy mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy yordam manbalarini ko‘paytirish.

В статье представлены идеи по сокращению бедности в районах посредством финансовой поддержки населения и повышению благосостояния населения за счет увеличения различных источников финансовой помощи.

**Ключевые слова:** финансовая поддержка района, финансовые спонсоры, повышение эффективности использования финансовых ресурсов, увеличение источников финансовой помощи.

The article presents ideas on reducing poverty in neighborhoods through financial support for the population and increasing the well-being of the population by increasing various sources of financial support.

**Keywords:** financial support for the neighborhood, financial sponsors, increasing the efficiency of the use of financial resources, increasing sources of financial assistance.

Mahalla bu sharqona “demokratiya darsxonasi”, mahalla so‘zi arabcha “mahal” so‘zidan olingan bo‘lib “istiqomat qiladigan joy, hudud” ma‘nolarini bildiradi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha bundan 1100 yil oldin mahalla boshqaruvi ham vujudga kelganligi, qadimda mahalla ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘muriy-huquqiy tuzimi sifatida e‘tirof etilgan, Alisher Navoiy “hayratul-abror” asarida ham dalillar bilan bayon etilgan. O‘zbekistonda mahalla institutining yillar davomida aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuasi sifatida rivojlanib kelgan. Mahalla hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida xalqimizni tarixiy an‘ana, urf-odatlarini qadriyatlarini saqlashda odamlarni birlashtirib, insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan boshlab jamiyatdagi boshqaruv tizimlarini isloh etish, davlatni ayrim vazifalarini jamiyat tashkilotlariga bosqichma-bosqich o‘tkazish bu kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o‘tish yo‘lidagi ulkan vazifalar bajarib kelinayotganligi muhimdir.

Agar dunyodagi rivojlangan davlatlar tajribasini ko‘radigan bo‘lsak ularda mahalla o‘zini-o‘zi boshqarish deganda G‘arb mamlakatlarida “munisipal” boshqarish nazarda tutiladi ya‘ni muayyan ma‘muriy-hududiy birlikdagi aholi vakolatlarini ifodalaydi. Yevropa, Shimoliy Amerika, Yaponiya va boshqa rivojlangan davlatlarda munisipal kengashlar huquqiy jihatdan munisipal boshqaruvidan baland qo‘yilgan.

Ularning vositalariga

1. Mahalliy byudjetni qabul qilish
2. Yuqori tashkilotlar hal qila olmagan masalalarni hal qiladi.
3. Mahalliy soliqlarni joriy qilish.
4. Mahalliy referendumlarni belgilash.
5. Munisipalimentioning rahbarlik organlarini tashkil etish va nazorat qilish.

Aholini manzilli ijtimoiy himoyalash aynan mahallalar orqali oshirilsa yaxshi samara beradi. Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha 1 mlrddan ziyod aholi ijtimoiy himoyaga muhtoj hisoblanadi, shuning uchun ham bu mavzu dolzarbdir.

Dunyoda XX asrning ikkinchi yarmida umumiy farovonlik davlat “nazariyasi” paydo bo‘ldi. Bu nazariya davlatda yashovchi hamma aholi tabaqalarini manfaatlarini ta‘minlovchi, himoya qiluvchi, ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi vositasi darajasini qarash kelinmoqda. O‘zbekistonda ham bozor sharoitida aholini ijtimoiy himoyalash, turmush darajasini oshirish, farovonliklarini ta‘minlash uchun hamma ishlarni bajarish zaruriyatdir.

-aholini ish bilan ta‘minlash

-mahalla orqali ishchi kuchini kasbga tayyorlash

-mahallalarda servis va maishiy xizmatni rivojlantirish

-mahallalarda joylashgan xorijiy davlatlar elchixonalari bilan aloqa bog‘lab fuqarolarni chetga ishlab kelishlariga ko‘maklashish

O‘zbekistonda 2026-yilni “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”, deb e‘lon qilinganligini hisobga olib, jamiyatimizda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan mahallalarni ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, ma‘naviy-moddiy jihatdan rivojlantirishni ta‘minlovchi faktorlarni aniqlab ulardan mahallalar va mamlakatimiz miqyosida aholi farovonligini oshirish yo‘llarini ko‘rsatishdir.

Ilmiy izlanishda asosan guruhlash, analiz hamda sintez jumladan miqdoriy va sifat tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy statistika, prognozlash kabi iqtisodiy

O‘zbekistonda “Fuqarolarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari to‘g‘risida” gi qonunga binoan aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda mahallaning aniq yo‘naltirilgan faoliyatini belgilash mahallani xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish sohasidagi vazifalarini aniq belgilash. Mahallaning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirish hayotiy zaruriyatga aylanmoqda. O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil dekabr oyida Oliy majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta‘kidlab o‘tilganidek 2025-yilda 188 ta mahalladagi 715 ming aholi yashaydigan xonadonlarga birinchi marta toza ichimlik suvi kirib bordi yana 2 million 300mingga yaqin aholining suv ta‘minoti yaxshilandi, yoki 867ta “og‘ir” mahalladagi 470 mingta xonadonga tomorqalarni sug‘orish uchun ilk bor suv yetib bordi. 2025 yilda mamlakatimizda 5 million aholimiz daromadli bo‘lib ishsizlik darajasi 5,5 foizdan 4,9 foizga tushdi va bo‘yicha 2025 yilga kelib, qariyb 1,5 million ehtiyojmand aholi kambag‘allikdan chiqdi, ilk bor 1 ming 435 ta mahalla kambag‘allikdan xoli hududga aylandi.

Kambag‘al oilalarga mansub 168 ming nafar bola davlat bog‘chalariga imtiyozli asosda qabul qilindi. 2025 yildan boshlab mamlakatni 208 ta bog‘chasida 1-marta inklyuziv ta‘lim tizimi joriy etildi. 2025-yilga kelib, mamlakatda kambag‘allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi [1].

Bularga erishishda davlatni odilona olib borgan ijtimoiy siyosat hisoblanib, davlat tomonidan aholiga subsidiya, kreditni kompensatsiya kabi yuzdan ortiq xizmatlarni ko‘rsatilishi tufayli erishildi. Shuni ta‘kidlash kerakki, mamlakatimizda hamma narsa mahalladan boshlanadi, mahalla ahli har bir fuqaroni daromadlaridan tortib, farovon hayot kechirish manbalarigacha yaxshi bo‘ladi.

Mahallalarni moliyaviy rivojlanishi avvalo har bir tuman byudjeti daromadlarini oshib borishi bilan bog‘liqdir. Shularni hisobga olib prezidentimiz ta‘kidladiki; “Albatta bu ishlarni samarali tashkil qilish uchun tuman byudjeti daromadlarini kamida 2 karra ko‘paytirishga sharoit yaratib berish zarur. Shu maqsadida 2026-yil 1-yanvardan boshlab, qo‘shilgan qiymat solig‘idan tushumning Toshkent shahrida 5 foizi, qolgan hududlarda 20 foizi qoldirilib, bu mablag‘ning yarmini tumanlar byudjetiga o‘tkaziladi. Murojaatnomada aytib o‘tildiki, 2026-yildan boshlab mamlakatdagi

mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish uchun 20 tirilion so‘mni viloyatlarning o‘ziga qoldiriladi” [2]. Eng muhimi bu mablag‘larning har bir so‘mi aholimiz uchun qo‘shilgan qiymat yaratishi zarur. Shu bois, bu pullar umuman qaysidir tuman uchun emas, balki mahallada ish o‘rinlari yaratiladigan, aholini daromadli qiladigan aniq loyihalarga yo‘naltiriladi. Hukumat 2026-yilda asosiy soliq stavkalarini o‘zgarishsiz qoldirgan holda tadbirkorlik infratuzilmasi loyihalariga 10 tirilion so‘mdan ziyod mablag‘ ajratiladi [3].

Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish uchun 140 tirilion so‘m resurs beriladi. Shundan 43 tirilion so‘mi xotin-qizlar va yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi. 2026-yilda qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash uchun 52 tirilion so‘m davlat ajratadi. Ayni vaqtda mahallaning muhim vazifalari aholini o‘sib borayotgan ehtiyojlarini hisobga olib bozor sharoitida inflyatsiyani alohida o‘rgangan holda aholini ko‘rayotgan zararni qoplash yo‘llarini qidirish, qishloqda uy-joy bilan ta‘minlanish masalasida muammolar mavjud. Buning sababi, hamma qishloqlarda aholini tabiiy o‘shini boshqarilmayotganligi, bu sohada mahalla qo‘mitasi a‘zolari o‘zlariga berilgan vakolatdan foydalanib tushuntirish ishlarini olib borish ayniqsa, turli to‘y hashamlardagi isrofgarchilikni oldini olishga alohida e‘tibor qaratish kerak.

Mahallani vazifasiga qishloqda agrosanoat kompleksini rivojlantirish, qishloq aholisini ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, madaniy saviyasini, tibbiy madaniyatini, fuqarolik mas‘uliyatini oshirishga ayniqsa, aholini hamma qatlamlari orasida fidoiylik, vatanparvarlik sifatlarini oshirishga e‘tibor qaratish kerak. O‘zbekiston shaharlarida 8536 ta mahallalar aktiv faoliyat olib bormoqda. Shaharlarda 101 ta mahalla mavjuddir. Qishloqlarda 1133 ta mahalla, ovullarda 154, jamoatchilik asosida 1034 ta mahalla faoliyat olib bormoqda. Davlatni bevosita moliyaviy yordam natijasida mahallalarni moddiy moliyaviy asoslarini mustahkamligiga alohida e‘tibor berilmoqda. Mahallalarning jamoat va boshqa obyektlari, transport vositalari, ko‘chmas mulklari salmog‘i oshib borayotganligi muhimdir. Shuni ta‘kidlash lozimki mahalladagi mol-mulkni qonunda belgilangan tarzda turli usullarda tasarruf etish ushbu mol-mulk bilan bog‘liq bitimlar qonuniyligini ta‘minlash tartibi mavjudligini hisobga olib mahalla mulkini hisobini olish uchun mahalla buxgalterligini rivojlantirishni hayotni o‘zi talab qilmoqda. Hozirgi kunda moddiy jihatdan bino va moddiy texnik jihatdan ta‘minlanganligi bu borada mavjud yetishmovchiliklarni bartaraf etib borishga qaratilgan chora-tadbirlarning mavjudligini hisobga olish joizdir.

Fuqarolarni o‘zini-o‘zi boshqarish organlari balansida ijtimoiy maishiy obyektlar, transport xo‘jalik anjomlari, ko‘chmas mulk mavjudligini ko‘rib chiqish hamda shart-sharoitlar yaratish, masalan bino inventor, kompyuter bo‘yicha ta‘minlash bo‘yicha chora tadbirlar ro‘yxatini ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amalga oshirish mahallalarni moliyaviy asosini mustahkamlashda xalq deputatlari tuman va shahar kengashlari tomonidan byudjet mablag‘lari bilan ta‘minlash, homiylarning yordamini jalb qilish asosiysi fuqarolar yig‘inlarining tadbirkorlik va boshqa mustaqil daromad keltiradigan faoliyat manbalarini shakllantirishga ko‘maklashish kerak. Fuqarolar yig‘ini kengashi devoni xodimlariga oylik maosh ta‘minlash, ularni mukofotlash va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha qilingan moliyaviy sarf-xarajatlar tahlilini olib borish maqsadga muvofiqdir. O‘zbekistonda davlat byudjetidan berilayotgan moliyaviy yordamlar: davlat pensiyasi, ish haqi, subsidiya, nafaqalar, imtiyozli kreditlar miqdori ortib bormoqda. Hozirgi kunda mamlakatda bozor iqtisodiyoti sharoitida qonuniy daromadlar ortib bormoqda jumladan: bozor daromadlari, mehnatni natijalaridan keladigan daromadlar, mulkka egalik qilinganligi uchun olinadigan daromadlar qimmatli qog‘ozlardan tushadigan daromadlar, vositachilik faoliyatidan kelib tushadigan daromadlar oshib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat mulkidan keladigan daromadlarga keng imkoniyatlar berdi: ayni paytda mehnat natijalari haqi, renta, dvident, foiz va boshqa manbalar daromad sifatida aholini farovonligini o‘shiga ijobiy ta‘sir qilmoqda. Shularga qaramasdan mamlakatimizda kambag‘allik turlari ham saqlanib kelmoqda bular: qarilik, mehnat qobiliyati yo‘qolishi, ishsiz qolish va h.k.lardir. hozirgi bozor sharoitida insonlarni mol-mulkni bo‘lishi zaruriyatdir. Jahondagi barcha millatlarning qudrati ularning mol va boyliklari bilan o‘lchanadi. Mol-mulk topishning eng samarali yo‘llari bular: hunarmandchilik, tadbirkorlik, dehqonchilik, xizmat ko‘rsatish, savdo sohasidir, bog‘dorchilik, intellektual mulkdan foydalanish ayniqsa sug‘urta kompaniyalari mablag‘laridan samarali foydalanish yaxshi natija beradi.

Jahon tajribasida AQSHda sug‘urta kompaniyalari aholini ijtimoiy himoyalashda aktiv qatnashadi. Germaniyada birinchi bolaga 70 yevro, ikkinchi bolaga 10 foiz qo‘shimcha, uchinchi bolaga 140 yevro beriladi. Mamlakatda hamma fuqarolar sug‘urtaga tortilgan hatto ajnabiylar ham Fransiyada davlat yordami bir odamga 10000 frank beradi. Ishsizlarga nafaqadan tashqari har kuni 40 frank miqdorda qo‘shimcha haq beriladi. Angliyada mehnat tarbiyasi, g‘urur qonunlarga itoat etish, inglizlar o‘zlarini o‘zlari ijtimoiy himoyalashga majbur etadi. Hozirgi zamon talabi mahallalardagi intellektual bolalarni izlab topib ularni o‘qishiga ota-ona, mahalla va davlat investitsiyalar qilishi kelajakda yaxshi natija beradi, ayniqsa chet ellarni mahalla bolalari uchun davlat tashkil etishi yaxshi natija beradi va oliy dargohlarda a’lochi bolalarni davlat kontrakti summasini kamaytirib borish natijasida mamlakatda ilm-fan rivojlanishiga keng imkoniyatni faqat davlat byudjet mablag‘lari orqali amalga oshirish mumkin. Gap shundaki, san’at va sportni rivojlantirishga davlat byudjetidan trillionlab mablag‘ sarflandi. Endi bundan buyon bu mablag‘ni ilm-fan sohasiga sarflashimiz hayotiy zaruriyatga aylandi. Aynan yangi texnologiyalar va zamonaviy texnikalarni ilm-fan sohasida xizmat qiladiganlar yaratadi, agar shu yo‘nalishga pul sarflasak kelajakda O‘zbekiston dunyoga yangi texnologiyalar va zamonaviy texnikalar ixtirolarini sotuvchi mamlakatga aylanadi. Bunday ixtirochilarni mahallalardagi o‘quvchi yoshlar orasidan qidirib topib katta sahnalarga olib chiqish hayotiy zaruriyatdir. O‘zbek xalqi farzandlarida ajdodimiz buyuklari Al-xorazmiy, Beruniy, Ibn-sino, Ulug‘bek, Zamaxshariy, Farobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Behzod, Jaloliddin Manguberdi genlari xalqimizda saqlanib kelmoqda ana shularni mahalla farzandlarini o‘qishi orqali qaytadan hayotga qaytarish mumkin, bu qaytar dunyodir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mahallalarda aholini moliyaviy jihatdan qo‘llab quvvatlash hozirgi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda aholi o‘tgan tuzumida nochor yashadi. Faqat oyida ikki marta va pensiyalar oyida oladigan pensiya hisobida yashab keldi. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishga tayyorlanayotgan 1992-yilda AQSH ekspertlarini bizda o‘tkazgan ilmiy kuzatishlari natijasida aholini 65%i nochor ahvolda degan xabarlar e’lon qilindi. Bu jarayondan aholini ahvolini yaxshilashga hukumat olib chiqdi. 2025-yilda kambag‘allik darajasi 5,8%ga tushganligi e’lon qilindi.

Hozirgi zamon talabi mahalla infratuzilmasini yanada rivojlantirish orqali aholini farovonligini oshirish mumkin. Mahallalarda muammolarni kompleks yechishga e’tibor qaratishimiz ayniqsa, toza ichimlik suv, ravon yo‘llar, musaffo havo, obodonlashtirish, ommaviy kitobxonlik, ixtirochilik maskanlarini ochib yoshlarni jalb etishimiz lozim.

2026-yilda mamlakatimiz bo‘yicha mahallalar infratuzilmasini rivojlantirishga 20 trillion so‘m ajratilishi tarixda mahallalar uchun ajratilgan hamma summadan moliyaviy mablag‘dir, bu mablag‘ni hayotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish kerak.

Mamlakat miqyosida kambag‘allikni qisqartirish hukumat tomonidan umummilliy harakatga aylantirish natijasida 2025-yilda 8,5 milliondan ziyod aholi kambag‘allikdan chiqarildi, hozirgi kunda aynan kambag‘allik shahar va qishloq mahallalarida kamayib kelmoqda va ularni ish bilan ta’minlash masalasini yechish kerak.

Mahallalarda kelajakda aholini o‘z-o‘zini ish bilan band etishiga erishish uchun kasb-hunar, o‘qish ta’limini yangi usulda sun’iy intelleklarni yaratish hayotiy tajribasidan foydalanishni joriy etish kerak.

Har bir mahalla ahlini iqtisodiy, erkin faoliyat ko‘rsatishiga keng imkoniyatlar ochish, turli sog‘lomlashtirish ishlarini mahallalarda o‘tkazish.

Mahallalarda homiyilar yordamida kambag‘allar uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, o‘qish uchun turli o‘quv qurollarini o‘ta kambag‘allar uchun bepul qilish kerak.

Sug‘urta kompaniyalari va ularni filiallarini kambag‘allar soni ko‘p bo‘lgan mahallalarga homiy sifatida biriktirib ularni qilgan homiyliklari uchun sug‘urta korxonalariga soliq imtiyozlarini berish kerak.

Hozirgi kunda ommalashib ketgan jarimalarni kamaytirish, chunki bizda ish haqi, pensiya, nafaqa summasi rivojlangan mamlakatlardan juda past, ..... aholi daromadi uning oziq-ovqatiga yetishi zarurdir[1]. Biz moliyaviy jihatdan rivojlangan mamlakatlardan orqadamiz, shunga qarab xulosa chiqarishimiz kerak.

Mamlakatimizda asosiy e’tibor kambag‘allikka, qashshoqlikka qarshi kurash olib borishda aholini o‘zini ham iqtisodiy faolligini oshirish vatanparlik ruhida tarbiyalash yaxshi samara beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 26.12.2025 й. president.uz.
2. Boyev X.I. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalashni moliyalashtirishni metodologiyasini takomillashtirishni muammolari. T.2023 y. Monografiya 216 bet.
3. Mingboyev.U. Hayotim haqiqatlari. Toshkent. 2025 y. 465 bet.
4. Boyev X.I. Aholini manzilli ijtimoiy himoyalashni boshqarish orqali kambag‘allikni kamaytirish. Toshkent-2022 y. 88 bet.

UDK: 378.14:005:004

## BIZNES TA’LIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSION O‘QITISH STRATEGIYALARI

## ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ИННОВАЦИОННЫЕ СТРАТЕГИИ ОБУЧЕНИЯ В БИЗНЕС-ОБРАЗОВАНИИ

## DIGITAL TRANSFORMATION AND INNOVATIVE TEACHING STRATEGIES IN BUSINESS EDUCATION

**Raxmonova Nilufarxon A’zamjon qizi**  
Qo‘qon Universiteti mustaqil tadqiqotchisi

### Annotatsiya

Ushbu maqolada biznes ta’limida innovatsion o‘qitish strategiyalaridan foydalanish hamda raqamli texnologiyalar yordamida talabalarning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish masalalari yoritilgan. Raqamli o‘qitish platformalari, interaktiv vositalar, real biznes holatlari asosida o‘qitish, simulyatsiyalar, gamifikatsiya, raqamli hamkorlik va sanoat vakillari bilan onlayn muloqot kabi yondashuvlar zamonaviy ta’lim jarayonining asosiy omillari sifatida tahlil qilingan. Maqolada shuningdek, ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish ko‘nikmalarini talabalarga singdirishning ahamiyati va adaptiv o‘qitish imkoniyatlari keng yoritiladi. Tadqiqot natijalari innovatsion o‘qitish metodlari talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirishi, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishi va ularni zamonaviy biznes muhitiga tayyorlashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Innovatsion ta’lim, raqamli texnologiyalar, biznes ta’limi, simulyatsiya, gamifikatsiya, case-study, raqamli hamkorlik, adaptiv o‘qitish

В данной статье рассматриваются вопросы использования инновационных стратегий обучения в бизнес-образовании, а также эффективной организации учебной деятельности студентов с помощью цифровых технологий. Анализируются такие подходы, как цифровые образовательные платформы, интерактивные инструменты, обучение на основе реальных бизнес-ситуаций, симуляции, геймификация, цифровое сотрудничество и онлайн-взаимодействие с представителями индустрии, как основные факторы современного образовательного процесса. Также подробно освещается важность формирования у студентов навыков принятия решений на основе данных и возможности адаптивного обучения. Результаты исследования показывают, что инновационные методы обучения повышают мотивацию студентов, способствуют развитию практических навыков и играют важную роль в подготовке их к современной бизнес-среде.